

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISH MUOMMOSINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK VA METODIK ADABIYOTLARDA O'RGANILISHI

Ermirzayev Abbos Vaxobjonovich
Namangan davlat chet tillari instituti dotsenti
Email: ermirzayev89@mail.ru

Annotatsiya: Xorijiy tilni o'rgatishda sotsiolingvistik kompetensiyani takomillashtirish dolzarb ilmiy-metodik muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyani takomillashtirish muommosining psixologik-pedagogik va metodik adabiyotlarda o'rganilishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: sotsiolingvistik, kompetensiya, psixologik-pedagogik, metodik

ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ И МЕТОДИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Эрмирзаев Аббос Вахобжонович
Доцент Наманганского государственного института иностранных языков
Email: ermirzayev89@mail.ru

Аннотация: Совершенствование социолингвистической компетенции в обучении иностранному языку является одной из актуальных научно-методических проблем. В данной статье рассматривается изучение проблемы совершенствования социолингвистической компетенции будущих учителей английского языка в психолого-педагогической и методической литературе.

Ключевые слова: социолингвистика, компетенция, психолого-педагогическая, методическая.

THE STUDY OF THE ISSUE OF IMPROVING THE SOCIOLINGUISTIC COMPETENCE OF FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS IN PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL AND METHODOLOGICAL LITERATURE

Ermirzayev Abbos Vakhobjonovich
Associate Professor at Namangan State Institute of Foreign Languages
Email: ermirzayev89@mail.ru

Annotation: *Improving sociolinguistic competence in foreign language teaching is considered one of the pressing scientific and methodological issues. This article discusses the study of the issue of improving the sociolinguistic competence of future English language teachers in psychological-pedagogical and methodological literature.*

Keywords: *sociolinguistics, competence, psychological-pedagogical, methodological.*

KIRISH

Globallashuv jarayonining jadallashuvi, madaniyatlararo muloqotning chuqurlashuvi zamonaviy ta'lim oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Jumladan, xorijiy tilni o'rgatishda sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirish dolzarb ilmiy-metodik muammolardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Ayniqsa, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida ushbu kompetensiyani shakllantirish nafaqat til bilish darajasini oshirish, balki ularning madaniyatlararo muloqotga tayyorlik darajasini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi.

Sotsiolingvistik kompetensiya — bu til birliklarini ijtimoiy-madaniy kontekstda to'g'ri qo'llash qobiliyatidir. U nutq egasining ijtimoiy vaziyatga, suhbatdoshga, muloqot shakli va kommunikativ maqsadga mos til vositalarini tanlash qobiliyatida namoyon bo'ladi. Mazkur maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirish masalasining psixologik, pedagogik va metodik adabiyotlarda qanday yoritilganiga ilmiy-nazariy yondashuv asosida tahliliy baho beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

XX asrning 90-yillari boshlarida Yevropa Kengashi chet tilni o'zlashtirishda amaliy maqsad sifatida tildagi nutq faoliyatining barcha turlarini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi va uni yetakchi sifatida belgilaydi. Umuman olganda, ingliz tilini o'qitishning maqsadi kommunikativ mahorat yoki kompetensiyada amalga oshiriladi. Chet tillarni bilish bo'yicha Yevropaning umumiy kompetensiyasi o'quvchilarning quyidagi kompetensiyalarni o'zlashtirishi orqali amalga oshiriladi: lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv, strategik, ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy [1; 204]. Shunday qilib, Yevropa Kengashi chet tilni bilish darajasini ishlab chiqishda sotsiolingvistik kompetensiyani kommunikativ kompetensiya tarkibiga kirishini ta'kidlaydi.

2003 yilda Yevropa Kengashi tillarga oid SEFR dasturini ishlab chiqdi, unda umumiy va kommunikativ til kompetensiyalarni alohida qayd etib o'tdilar. Kommunikativ til kompetensiyasi lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik tarkibiy qismlardan iboratligi qayd etib o'tildi.

Lingvistik kompetensiya til materiali (talaffuz, leksika, grammatika) haqida bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv) bo'yicha ko'nikma va malakalarni egallashni nazarda tutadi.

Pragmatik kompetensiya o'rganilayotgan ingliz tilida kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo'lganda takroran so'rash, uzr so'rash kabi murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish qobiliyatini nazarda tutadi. Pragmatik kompetensiya deganda, gapiruvchi va gap orasidagi bo'shliq ustiga qo'yiladigan ko'priq tushuniladi. Tinglovchi gapni emas, balki gapiruvchining fikr ifodalash uchun so'zlardan foydalanishdagi ko'zlagan maqsadi, niyati va xohish-istagini tushunishi lozim [2; 9]. Shuningdek, ingliz tilida ifodalanadigan fikrni adekvat talqin etilishini ta'minlash uchun zaruriy leksik birliklardan oqilona foydalana olish pragmatik kompetensiya deyiladi.

Keyingi yillarda til kommunikatsiyasining pragmatik jihatida tadqiqotchilar e'tiborini ko'proq jalb etmoqda, til belgilaridan amaliy maqsadlarda foydalanishni o'rgatish masalasi keng muhokama etilmoqda. Til belgilari va ulardan foydalanadigan shaxslar o'rtasidagi pragmatik munosabatlar shundan iboratki, bu belgilar, aniqrog'i, ularning ma'nolari ayni shaxslar uchun xushhazm va tushunarli bo'lishi, ularni ma'lum darajada ta'sirlantirishi lozim [3; 211].

"Sotsiolingvistika" atamasi ham jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy talablariga ko'ra tilshunoslik sohasida paydo bo'lgan. Ushbu atama 1952 yilda amerikalik sotsiolog olim G.Karri (Currie 1952) tomonidan fanga olib kirilgan. Lekin sotsiolingvistikaning fan sifatida paydo bo'lishini Yevropa va rus olimlarining fikrlariga tayangan holda uzoqroqdan qidirmoq lozim. Tadqiqotchilardan В.И.Беликов va Л.П.Крысинларнинг fikriga ko'ra sotsiolingvistikaning paydo bo'lishi XX asr boshlariga borib taqaladi. Ularning fikricha, asr boshlarida Fransiya, Rossiya, Chexiyada ilk bor tilning ijtimoiy institutlar bilan aloqasi masalasi lingvistikdan ajralmagan holda tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.[4; 8]

Pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarda sotsiolingvistika tushunchasiga qator tavsiflar berilgan. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida "Sotsiolingvistika lotincha "Societas" so'zidan olingan bo'lib, tilshunoslik, (jamiyatshunoslik)sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya va etnografiya fanlari kesishmasida rivojlanuvchi, tilning ijtimoiy tabiati, uning ijtimoiy vazifalari va omillarining tilga ta'sir ko'rsatish mexanizmi hamda tilning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'рни bilan bog'liq ko'plab muammolar majmuini o'rganuvchi ilmiy-nazariy soha ekanligi ta'kidlanadi" [5].

O'zbek tilining izohli lug'atida "Sotsiolingvistika - tilning ijtimoiy tabiati, uning ijtimoiy vazifalari, ijtimoiy omillarining tilga ta'sir ko'rsatishi hamda tilning jamiyat hayotidagi o'рни bilan bog'liq ko'plab muammolarni o'rganuvchi ilmiy-nazariy soha [6; 557]" - deb ta'kidlanadi.

XX asrning birinchi yarmida taniqli olimlar I.A.Boduen de Kurtene, Е.Д.Поливанов, Л.П.Якубинский, В.М.Жирмунский, Б.А.Ларин, А.М.Селищев, Г.О.Веноккур (Россия), Ф.Брюно, А.Мейе, П.Лафарг, М.Коэн (Fransiya), Ш.Балл, А.Сашеэ (Shveysariya), Ж.Вандриеслар (Belgiya) tomonidan sotsilingvistik kompetensiya masalalari o'rganilgan va tadqiq qilingan.

Ayniqsa, chet til o'rgatishda sotsiolingvistik kompetensiya (H.B.Набатова, М.В.Леушкина, Е.А.Костина, Е.С.Нечаева, И.А.Исенко, Л.Ф.Зуева, И.А.Исенко), ijtimoiy-madaniy kompetensiya (С.Э.Чехова, С.В.Пахотина, Е.А.Костина, Л.А.Борходоева), matnlarni autentik o'qish vositasida chet tillarni o'rganish (H.B.Барышников), (Т.В.Ежова), texnik OTMlarida gapirish misolida kompetentlikni rivojlantirish (H.A.Беленюк), pedagogik yo'nalishdagi talabalarning chet tilidagi og'zaki nutq orqali kompetentlikni takomillashtirish (И.А.Исенко) turlari masalalari o'rganilgan, ilmiy va nazariy jihatdan tadqiq qilingan.

Tadqiqotlarda sotsiolingvistik kompetensiya-muloqotning mazmuni, xarakteriga ko'ra til shaklini tanlash va o'zgartirish qobiliyatidir deb ta'rif beriladi [7; 288]. Albatta muloqot mazmuni shaxsning kasbi, ijtimoiy holati, dunyoqarashi, bilim saviyasi, ma'lumotlilik darajasiga ham bog'liqdir.

Sotsiolingvistik kompetensiya, ijtimoiy-madaniy kompetensiyani o'z ichiga olib, autentik nutqning milliy xususiyatlarini, o'zi yashayotgan mamlakatning urf-

odatlari, qadriyatlarini, marosimlari va boshqa milliy-madaniy xususiyatlarini bilish hamda tili o'rganilayotgan mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini ko'zda tutadi. Ya'ni mos kommunikativ vaziyatda diskurs tanlay olish, yuzaga kelgan muammoning mohiyatini tushuntira olish va mijozga zaruriyat tug'ilganda rozilik borasidagi xizmatni taqdim qiluvchi shaxsga tushuntira bilish, til shakllarini tanlay bilish va ularni nutqiy mavzu bo'yicha kommunikativ vaziyatlar doirasida sotsiolingvistik matnga muvofiq tarzda qo'llay va o'zgartira olish kabilardir. Shuningdek, sotsiolingvistik kompetensiya til egalarida hayratlanish yoki achchiqlanishni uyg'otmaydigan, ular uchun tabiiy, odatiy sanalgan muomalada muloqot qila olish kabilar tahlil qilishi ham ko'rsatib o'tilgan. [8; 103-105]

Sotsiolingvistik kompetensiya – axborot sohibini shakllantirishning asosiy ko'rsatkichi bo'lib, u shaxsning o'rganilayotgan tildan kommunikativ faoliyat me'yorlari, o'zga lingvoetnomadaniy qadriyatlar va o'zga til dunyosining milliy manzarasiga uyg'un tarzda foydalana olish kompetentligini nazarda tutadi [9; 177-182].

Sotsiolingvistik kompetensiyani madaniyatlararo kompetensiyaga fikran bog'lash mumkin. Chunki sotsiolingvistik kompetensiya deganda, ko'proq ta'lim sharoitida o'quvchilarni madaniyatlararo hamkorlikka tayyorlash tushunilmoqda. O'quvchilarga madaniyatlararo muloqotni o'rgatish birinchidan, xorijiy tildagi qoidalarni o'zlashtira olish uchun nutqiy faoliyat yuritishga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ikkinchidan, turli madaniyatga mansub kommunikantlar bilan uchrashganda, ularning madaniyatini tushunishlari uchun suhbatdoshining madaniyati bilan yaqindan tanishtirish orqali amalga oshiriladi [10; 248]. Xorijiy til va o'rganilayotgan til sohiblarining madaniyat bilan tanishish talabalarning dunyoqarashini, til boyligining kengayishiga xizmat qiladi [11; 21].

И.Л. Бим, В.В. Сафонова, П.В. Сысоев sotsiolingvistik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida e'tirof etadilar. И.Л. Бим va В.В. Сафоновалар ijtimoiy-madaniy kompetensiyani tarkibiga sotsiolingvistik kompetensiyani ham kiritadilar hamda ingliz tilini o'qitishda ijtimoiy-madaniy yondashuvni asoslab beradilar. Shunday qilib, XX asrning 90-yillaridan boshlab, sotsiolingvistik kompetensiyaga oid ikki nuqtai nazar kommunikativ

kompetensiyaning bir qismi sifatida vujudga kelgan. G'arbiy Yevropa standartining mualliflarida avtonom komponent sifatida sotsiolingvistik kompetensiyani ajratib ko'rsatishga bo'lgan umumiy yondashuv ustunlik qiladi.

G'arbiy Yevropada sotsiolingvistik kompetensiyaning kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida, uni lingvistik, sotsial-madaniy va diskursiv ta'lim, ijtimoiy kompetensiyalar bilan chambarchas bog'liq deb hisoblaydilar [12; 337].

Bizning fikrimizcha, sotsiolingvistik kompetensiyani kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida o'rta umumta'lim maktablarida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Faqat shu tarzda o'quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiya doirasida tili o'rganilayotgan mamlakat dunyosining yangi ko'rinishini o'rgangan holda, sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirish jarayonida dunyoning lingvistik manzarasini o'zlashtirishi mumkin. Bundan tashqari, o'rganilayotgan ingliz tilini madaniy qadriyatlar tizimining o'rganish asosida, o'ziga xos jamiyatlar, xulq-atvor modellari shakllanadi va nutq xatti-harakatlarining stereotiplari o'rganiladi, o'quvchilarning ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy va kasbiy sohalarida boshqa madaniyat vakillari bilan muloqot jarayoniga tayyorlash, kelajakda turli sohalarda yurtimizni rivojlanishiga hissa qo'shishi uchun e'tibor qaratmog'imiz darkor.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqola sifatli kontent-tahlil (content analysis) usuliga tayangan holda yozildi. Tadqiqot doirasida so'nggi yillarda chop etilgan ilmiy maqolalar, monografiyalar, dissertatsiyalar, darsliklar hamda metodik qo'llanmalar o'rganildi. Tahlil obyekti sifatida xorijiy va mahalliy olimlarning sotsiolingvistika, til o'rgatish metodikasi va madaniyatlararo kommunikatsiyaga oid ishlanmalari tanlab olindi.

Adabiyotlar tanlanayotganda quyidagi mezonlar asos qilib olindi:

- sotsiolingvistik kompetensiyaning ta'limdagi roli va ahamiyatini yoritishi;
- bo'lajak til o'qituvchilarini tayyorlashda qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodik yondashuvlarni tavsiflash;

- madaniyatlararo muloqotga tayyorlashga oid komponentlarni qamrab olishi.

Tahlil jarayonida matnlar tematik jihatdan kodlandi va muhim nazariy pozitsiyalar aniqlanib, umumlashtirildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Adabiyotlarni tahlil qilish natijasida sotsiolingvistik kompetensiya psixologik, pedagogik va metodik jihatdan quyidagi asosiy yo'nalishlarda yoritilgan:

- **Psixologik nuqtai nazaridan**, sotsiolingvistik kompetensiya shaxslararo muloqot madaniyatini shakllantirish, empatiya, tolerantlik, madaniy sezgirlik, ijtimoiy rol va statuslarga mos ravishda nutqni modellashtirish kabi jarayonlar bilan bog'liqdir. Til o'rganishda motivatsiya, o'ziga ishonch, kommunikativ ehtiyojlar ushbu kompetensiyaning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

- **Pedagogik adabiyotlarda** sotsiolingvistik kompetensiya ta'limning ijtimoiylashtiruvchi funksiyasi doirasida tahlil qilinadi. O'quvchilarda kommunikativ vaziyatlarga mos til birliklarini tanlay olish, turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqotga kirisha olish, stereotiplardan holi yondashuvni shakllantirish asosiy maqsadlardan biri sifatida ko'riladi.

- **Metodik manbalarda** esa bu kompetensiyaning shakllantirishda amaliy yondashuvlar, ya'ni autentik matnlardan foydalanish, WebQuest texnologiyasi, rolda o'yinlar (role play), muammoli topshiriqlar, til muhiti yaratish kabi usullar ilgari surilgan. Ayniqsa, tilni ijtimoiy kontekstda qo'llashga yo'naltirilgan topshiriqlar yuqori samaradorlikka ega ekani ta'kidlanadi.

MUNOZARA

Tahlil qilingan adabiyotlar asosida xulosa qilish mumkinki, sotsiolingvistik kompetensiyaning rivojlantirish bo'yicha nazariy va amaliy yondashuvlar turlicha, biroq ular muayyan umumiy jihatlarga ega. Jumladan, tilni o'rganish bu faqat grammatik va leksik bilimlarni o'zlashtirish emas, balki ijtimoiy muloqot madaniyatini ham egallashdir.

Biroq ayrim metodik manbalarda bu kompetensiyaning baholash mezonlari aniq belgilab berilmagan. Ko'plab ishlanmalarda o'qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar

yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bundan tashqari, O'zbekiston sharoitida sotsiolingvistik kompetensiyaga oid empirik tadqiqotlar soni oz, mavjud tadqiqotlar esa asosan nazariy tavsiyalar bilan cheklanmoqda.

Shu nuqtai nazardan, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda milliy madaniy kontekstni hisobga olgan holda, innovatsion metodlar asosida ta'limni takomillashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

XULOSA

Sotsiolingvistik kompetensiya bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining professional tayyorgarligida muhim o'rin egallaydi. Tahlil qilingan psixologik, pedagogik va metodik adabiyotlar ushbu kompetensiyani takomillashtirish uchun zarur nazariy asoslarni taqdim etadi.

Kelgusida quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish muhim hisoblanadi:

- o'quv dasturlarini sotsiolingvistik yondashuv asosida qayta ko'rib chiqish;
- milliy ta'lim kontekstiga mos darslik va metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish;
- sotsiolingvistik kompetensiyani baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- empirik tadqiqotlar asosida talabalarning mazkur kompetensiyadagi holatini o'rganish.

Ushbu tavsiyalar bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining nafaqat til bilimlarini, balki global muloqotga tayyorlik darajasini ham oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Common European Framework of reference for language learning and teaching / Draft 1. - Strasbourg: Council of Europe, 1993. - 204 p.
2. Турдиев Н.Ш., Асадов Ю.М., Акбарова С.Н., Темиров Д.Ш. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг компетенцияларини шакллантиришга йўналтирилган таълим технологиялари Т.Н.Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий-тадқиқот институти, Т.: 2015.-9 б.
3. Борходоев Л.А. Прагматический текст как средство формирования социокультурной компетенции студентов языкового вуза.: Дис. ... канд.пед.наук. -Улан-Удэ, 2002. - 211 с.
4. Беликов В.И, Крысин Л.П. Социолингвистика: Учебник для вузов. -М.: Рос.гос.гуманит. универ, 2001. 8 с
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат миллий нашриёти, -Т.: 2008. 8 том. Б-26.

6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. Давлат илмий нашриёти, -Т.: 2006. 3 жилд. -557 б.
7. Ёқубов И. Амалий инглиз тили методикаси. -Т.: 2009. -288 б
8. Дагбаева Н.Ж. Овчинникова М.Ф. Принципы формирования социолингвистикой компетенции на начальном этапе языкового вуза// Вектор науки ТГУ №1.(8). 2012. Стр. 103-105.
9. Базина Н.В. Социолингвистическая компетенция как объект контроля. // Лингвострановедение: методы анализа, технология обучения. Седьмой межвузовский семинар по лингвострановедению: Сб. статей. В 2 ч. / Отв. ред. Л.Г. Веденина. – М.: МГИМО-Университете, 2010. – Ч. 1. – С. 177-182.
10. Куникеева А.А. Социолингвистические проблемы обучения иностранных учащихся пониманию лексической экспрессии в современных русских 179 газетных текстах : дис. ... канд. пед. наук : 13.00.02 / А.А. Куникеева. — СПб., 1996.-248 с.
11. Ковалева Ю.Ю. Формирование методической компетенции будущего учителя английского языка как второго иностранного: на базе немецкого языка как первого иностранного: Автореф. дис. канд. пед. наук. -Томск, 2003. -21с
12. Сеница Ю.А. Формирование социолингвистической компетенции в процессе обучения устному иноязычному общению студентов неязыковых вузов: (в контексте национальной культуры Франции): дис. ... канд. пед. наук : 13.00.02 / Ю.А. Сеница. - М., 2000. - 337 с